


ISTE'MOL BOZORI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Andijon viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo aylanmasi 1661,0 mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 % ga oshdi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha tumanlarida o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari Andijon shahri (10,6 % ga), Oltinko'1 (4,7 % ga), Paxtaobod (4,0 % ga) va Andijon (3,8 % ga)

tumanlarida. Yuqori boʻlmagan oʻsish surʼatlari Baliqchi (1,3%ga), Boʻz (1,5 % ga) tumanlarida kuzatildi.

Tuman(shahar)larning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega boʻlgan Andijon shahri (34,5 %), Shahrixon (10 %), Asaka (9,9%), Qoʻrgʻontepa (7,8 %) va



Andijon (5,7 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.


**Aholi jon boshiga chakana
savdo tovar aylanmasi**

	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat bo‘yicha:	546,6	103,6
Andijon sh.	1329,9	109,0
Qo‘rg‘ontepa t.	620,1	99,9
Shahrixon t.	572,6	100,3
Asaka t.	518,1	101,6
Xo‘jaobod t.	512,8	101,6
Xonobod sh.	425,9	101,4
Baliqchi t.	408,4	99,6
Andijon t.	371,7	101,8
Oltinko‘l t.	360,4	102,8
Izboskan t.	359,3	100,9
Paxtaobod t.	355,6	102,1
Jalaquduq t.	316,1	102,0
Marhamat t.	305,8	101,6
Buloqboshi t.	262,4	101,7
Ulug‘nor t.	237,9	101,5
Bo‘z t.	230,3	99,8

Ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 3,6 % ga oshib, 546,6 ming so‘mni tashkil etdi (2018 yil shu

davrida 475,5 ming soʻmni tashkil qilgan). Oʻrtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori koʻrsatkichlari Andijon shahri (1329,9 ming soʻm), Qoʻrgʻontepa (620,1 ming soʻm) va Shahrixon tumanlarida (572,6 ming soʻm) kuzatildi.

2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo va umumiy ovqatlanishda yirik korxonalar savdo aylanmasi

	Mln.soʻm	Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat boʻyicha	215843,7	145,2
Oltinkoʻl t.	1 926,5	3,4 m
Asaka t.	11 294,8	2,8 m
Baliqchi t.	2 681,6	207,5
Ulugʻnor t.	85,7	169,5
Andijon sh.	177 314,5	152,9
Andijon t.	6 844,0	150,9
Boʻz t.	83,5	149,9
Xoʻjaobod t.	779,2	108,4
Xonobod sh.	666,7	102,7
Qoʻrgʻontepa t.	1 526,5	102,6
Buloqboshi t.	929,1	97,6
Jalaquduq t.	976,6	91,4
Shahrixon t.	6 786,7	90,3
Marhamat t.	1 143,6	84,7
Paxtaobod t.	1 574,4	65,2

Izboskan t.


1 230,3

20,5


KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 %ga o'sdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 76,2 %ini tashkil qildi. Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiy tovar aylanmasi hajmining 946,3 mlrd.so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning ulushi (foizda)




**2019 yil yanvar-fevral oylarida ulgurji savdoda yirik
korxonalar savdo aylanmasi**

 Viloyat bo'yicha	Mln.so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Viloyat bo'yicha	65968,8	82,5
Andijon t.	49,0	2,6 m
Bo'z t.	24,2	192,7
Qo'rg'ontepa t.	12136,4	171,3
Oltinko'l t.	35,6	145,4
Andijon sh.	50836,4	96,3
Shahrixon t.	2682,1	96,3
Baliqchi t.	38,5	92,2
Jalaquduq t.	19,7	58,8
Xo'jaobod t.	35,5	46,0
Ulug'nor t.	8,2	45,4
Paxtaobod t.	18,3	36,1
Marhamat t.	17,8	26,2
Izboskan t.	67,1	19,2
Xonobod sh.	-	-
Asaka t.	-	-
Buloqboshi t.	-	-


2019 yil yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati yuqori bo'lgan yirik korxonalar Andijon tumani (2,6 m), Bo'z tumani (192,7%), Qo'rg'ontepa tumani (171,3%) va Andijon shahar (96,3%) ni tashkil etdi. Buloqboshi, Asaka tumanlarida va Xonobod shahrida ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi yirik korxonalar faoliyati mavjud emas.

**2019 yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning shu davriga
nisbatan kichik korxonalar va mikrofirmalarning savdo**


aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda




2019 yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan mikrofirmalarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan kichik korxonlarning savdo aylanmasidagi o'sish sur'ati, foizda



2019 yil yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik korxonalar savdosi



2019 yil yanvar-fevral oylarida umumiy ovqatlanish korxonalarida savdo aylanmasi bo‘yicha yirik korxonalar faqatgina Andijon shahar (760,2 mln.so‘m) va Andijon tuman (808,2 mln.so‘m) larida mavjud bo‘lib jami o‘tgan yilga nisbatan 93,9 % ni tashkil etdi.

Andijon viloyat Statistika boshqarmasi
“Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi” bo‘limi

Tel.: (71) 230 – 82 – 53